



UO'K: 81'373.612.2(575.1)

Nurjamal AUEZMURATOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ziyonetvilly@gmail.com

QQDU dotsenti, f.f.n K.Paxratdinov taqrizi asosida

THE PHENOMENON OF NAME HARMONY IN KARAKALPAK ANTHROPNOMY: HISTORICAL TRADITION AND LINGUOCULTURAL ANALYSIS

Annotation

This article explores the phenomenon of name harmony (phonetic and semantic rhyme) in the anthroponymic system of the Karakalpak language. Based on archival materials and empirical observations, the study analyzes the phonetic, morphological, and semantic concordance of names, particularly anthroponymic sequences (harmonized names) formed through lexical elements such as "gúl", "nur", "ay", and "biybi". The article outlines the typology of harmonized names, their formation mechanisms, and their socio-cultural significance. This phenomenon is observed not only among the Karakalpak people but also among other Turkic nations such as Uzbeks, Tatars, Azerbaijanis, Bashkirs, and Kazakhs. The use of harmonized names within families symbolizes continuity between generations, cultural memory, and social cohesion. The article also analyzes the role of name harmony in social identification, cultural heritage transmission, and the preservation of familial traditions. In conclusion, the systematic study of name harmony is substantiated as a valuable linguistic-cultural indicator and a phenomenon of sociolinguistic function.

Key words: Anthroponymy, harmonized names, onomastics, Karakalpak language, Turkic peoples, cultural memory, naming tradition.

ФЕНОМЕН СОГЛАСОВАННОСТИ ИМЁН В КАРАКАЛПАКСКОЙ АНТРОПОНИМИИ: ИСТОРИЧЕСКАЯ ТРАДИЦИЯ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье рассматривается феномен согласованности (созвучности) имён в антропонимической системе каракалпакского языка. На основе архивных материалов и эмпирических наблюдений проводится анализ фонетической, морфологической и семантической согласованности имён, в частности антропонимических рядов (созвучных имён), сформированных с использованием лексических компонентов, таких как «гүл», «нур», «ай», «бийби». В статье рассматриваются типология согласованных имён, механизмы их формирования, а также их социально-культурное значение. Подобный феномен встречается не только у каракалпачков, но и у других тюркских народов – узбеков, татар, азербайджанцев, башкир и казахов. Выбор согласованных имён в семье выступает как символ преемственности поколений, культурной памяти и социальной близости. Кроме того, в статье анализируется роль таких имён в социальной идентификации, передаче культурного наследия и сохранении семейных традиций. В заключении обоснована научная значимость системного изучения феномена согласованных имён как социолингвистической функции и лингвокультурного маркера.

Ключевые слова: Антропонимия, согласованные имена, ономастика, каракалпакский язык, тюркские народы, культурная память, традиции имяназвания.

QORAQALPOQ ANTROPONIMIYASIDA ISMLAR UYG'UNLIGI FENOMENI: TARIXIY AN'ANA VA LINGVOMADANIY TAHLIL

Annotatsiya

Mazkur maqolada qoraqalpoq tilining antroponimik tizimidagi ismlar uyg'unligi (uyqashligi) fenomeni o'rganiladi. Tadqiqotda arxiv materiallari hamda amaliy kuzatuvlarga asoslangan holda, ismlarning fonetik, morfologik va semantik uyg'unligi, xususan, "gúl", "nur", "ay", "biybi" kabi leksik komponentlar orqali shakllangan antroponimik qatorlar (uyg'un ismlar) tahlil qilinadi. Maqolada uyg'un ismlarning tipologiyasi, ularning shakllanish mexanizmlari hamda ijtimoiy-madaniy ahamiyati yoritiladi. Ushbu fenomen nafaqat qoraqalpoq xalqida, balki boshqa turkiy xalqlar – o'zbek, tatar, ozarbayjon, boshqird va qozoqlarda ham uchraydi. Ismlarning uyg'un tanlanishi oila ichidagi avlodlar orasidagi uzviylik, madaniy xotira va ijtimoiy yaqinlik belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, maqolada uyg'un ismlarning ijtimoiy identifikatsiya, madaniy merosni uzatish va oila an'analari saqlashdagi roli tahlil qilinadi. Xulosa qismida ismlar uyg'unligining tizimli ravishda o'rganilishi, uning sotsiolingvistik funksiyasi va lingvomadaniy belgisi sifatida ilmiy ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Antroponimiya, uyg'un ismlar, onomastika, qoraqalpoq tili, turkiy xalqlar, madaniy xotira, nomlash an'anasi.

Kirish. Turkiy tillar oilasiga mansub xalqlarning ismlar tizimi – nafaqat lingvistik hodisa, balki ularning antroponimik tizimlari – ya'ni insonlarga beriladigan tarixiy-madaniy, sotsial-psixologik xususiyatlarini ham aks

ettiruvchi murakkab tizimdir. Ana shu tizimda alohida e'tiborga molik hodisalardan biri – bu oila yoki avlod doirasida ismlarning fonetik, morfologik yoki semantik jihatdan o'zaro uyg'unlik asosida tanlanishidir. Mazkur hodisa turkiy xalqlar onomastikasida antroponimik seriya (uyg'un ismlar qatori) nomi bilan tilga olinadi. Xususan, qoraqalpoq xalqida yangi tug'ilgan bolaga ism qo'yishda u bilan avval tug'ilgan opa-singillari, aka-ukalari, ota-onasi yoki boshqa yaqin qarindoshlarining ismlariga fonetik yoki semantik jihatdan o'xshash ism tanlash an'anasi mavjud. Bu holat – uyg'un ismlar tizimi – avlodlar o'rtasidagi uzviylik, madaniy xotira va oilaviy birdamlikni ifodalovchi lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi. Biroq hozirgi kungacha qoraqalpoq antroponimiyasida bu hodisaning tilshunoslik va sotsiomadaniy jihatlarini yetarli darajada ilmiy o'rganilmagan.

Mazkur maqolada qoraqalpoq tilidagi uyg'un ismlar fenomeni ilk bor tizimli tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda mahalliy FXDYO arxivlari, empirik kuzatuvlar, va boshqa turkiy xalqlar – xususan, tatar, boshqird, ozarbayjon va o'zbek xalqlarining onomastik tajribasi bilan qiyosiy o'rganish usuli asosida uyg'un ismlar tizimining xususiyatlari o'rganiladi. Mavzuning dolzarbligini birinchi navbatda ushbu hodisaning hozirgi zamonaviy nomlash madaniyatida ham yashovchanligi, tilning estetik va madaniy funktsiyalarini ifodalashi bilan izohlash mumkin. Tadqiqot natijalari qoraqalpoq tilining zamonaviy onomastik tizimini chuqurroq anglashga, ismlarning shakllanish mexanizmlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Ushbu hodisaga ilmiy yondashuv o'zining dastlabki ko'rinishini tatar tili materiallarida G.R. Galiullina, boshqird tilida Z.G. Uraksin, ozarbayjon tilida Sh.M.Saadiyev kabi olimlarning tadqiqotlarida topgan. O'zbek tilshunosligida esa bu masala L.I. Roizenon va A.I. Isaevlar tomonidan alohida e'tibor bilan o'rganilgan bo'lib, ular uyg'un ismlarni "antroponimik seriyalar" deb ataganlar. Ularning ta'kidlashicha, bu hodisa kishilar o'rtasida ijtimoiy ajratish (identifikatsiya) vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ammo qoraqalpoq onomastikasida ushbu jarayon na fonetik tipologiya, na sotsiomadaniy aspektga yetarlicha tadqiq etilmagan. Bizning asosiy maqsadimiz esa qoraqalpoq tilida ismlarning uyg'unlik asosida shakllanish tamoyillarini aniqlash, ularning tipologiyasini yaratish va bu hodisaning lingvistik hamda madaniy-funksional mohiyatini ochib berishdan iborat.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda qoraqalpoq antroponimiyasida ismlar uyg'unligi (rifmli ismlar) fenomenini o'rganish uchun lingvistik, madaniy-antropologik hamda sotsiolingvistik metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Asosiy maqsad – ismlar uyg'unligini shakllantiruvchi til birliklarini, ularning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi vazifalarini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Birinchiidan, deskriptiv-lingvistik metod yordamida qoraqalpoq tilidagi uyg'un ismlar strukturasi fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Jumladan, ismlarning o'xshash bo'g'inlari, so'z birikmalari (masalan, "gul", "ay", "nur") asosida shakllangan nomlar tizimi o'rganildi.

Ikkinchiidan, tipologik yondashuv orqali ismlar uyg'unligining strukturaviy ko'rinishlari – ya'ni antroponimik seriyalarning turlari aniqlanib, ular funksional va shakliy mezonlarga ko'ra tasniflandi. Bu usul bilan ismlarning oxiri bir xil bo'lgan, boshida umumiy

bo'g'in bo'lgan, leksik jihatdan biror kalit so'z atrofida shakllangan hollar o'zaro solishtirildi.

Uchinchiidan, qiyosiy-onomastik metod yordamida qoraqalpoq uyg'un ismlar tizimi boshqa turkiy xalqlardagi (tatar, ozarbayjon, o'zbek, boshqird) antroponimik hodisalar bilan solishtirildi. Bu yondashuv uyg'un ismlarning umumturkiy xususiyatlarini aniqlashga va qoraqalpoq an'analari o'ziga xosligini ko'rsatishga imkon berdi.

To'rtinchidan, sotsiolingvistik yondashuv asosida ushbu hodisaning ijtimoiy-madaniy vazifalari ya'ni oilaviy birdamlik, avlodlararo bog'liqlik, madaniy xotirani saqlash kabi jihatlar tahlil qilindi.

Metodologik asos sifatida L.I. Roizenon, A.I. Isaev, G.R. Galiullina, Z.G. Uraksin, Sh.M. Saadiyev kabi olimlarning antroponimik seriyalar va uyg'un ismlar haqidagi tadqiqotlariga tayanildi. Shuningdek, tadqiqotda lingvomadaniy tahlil komponentlari ham qo'llanilib, uyg'un ismlarning xalqona dunyoqarash, madaniy me'yorlar va etnik identifikatsiya bilan bog'liqligi ochib berildi.

Natijalar va muhokama. Tatar xalqida uzoq yillik an'anaga ega bo'lgan hodisa – bu yangi tug'ilgan bolaga qarindoshlar yoki ota-onasining ismlariga ohangdosh ism qo'yish odatidir. Umuman olganda, ismlar ohangdoshligini (ya'ni rifo'iy antroponimlarni) yaratish hodisasi ko'plab turkiy xalqlarda uchraydi. Masalan, oltoy xalq og'zaki ijodi, qadimiy qo'shiqlari va yozma yodgorliklarida rifo'iy antroponimlar keng qo'llangan [1]. Dog'iston antroponimiyasida esa ismlarning ohangdoshlik asosida tanlanishi qarindoshlik aloqalarini mustahkamllovchi vosita sifatida xizmat qiladi [2]. Ozarbayjon ismlarini tadqiq qilgan olim Sh.M. Saadiyevning ta'kidlashicha, ozarbayjon tilida ohangdosh (rifmli) ismlar ayniqsa o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng tarqalgan bo'lib, ularning aksariyati ayol ismlari doirasida shakllangan [3].

Tatar tilida esa ismlar ohangdoshligini birinchi bo'lib ilmiy jihatdan tadqiq qilgan olim – G.R. Galiullina hisoblanadi. U Kazan shahrida bu nomlash an'anasi chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanligini va bugungi kunda ham faol tarzda saqlanib kelinayotganini ta'kidlaydi [4].

Garchi ismlarning o'xshashligi (uyg'unligi) hali maxsus va yetarli darajada tadqiq qilinmagan bo'lsa-da, ba'zi onomast olimlar antroponimiy doirasida ushbu hodisaga e'tibor qaratganlar. Masalan, Z.G. Uraksin ta'kidlashicha, boshqird xalqida qadimdan bolalarga ularning ota-onasi, aka-ukasi yoki opa-singlisining ismlariga fonetik jihatdan o'xshash ismlar qo'yish odati mavjud. Bunday holatlarda ismlarning bosh yoki oxirgi qismlari o'xshash bo'lib, fonetik uyg'unlik (rifm) hosil bo'ladi: masalan, Shamil–Kamil, Ravil–Nail–Rail [5]. Shuningdek, Sh.M. Saadiyevning qayd etishicha, ozarbayjon xalqida ham ayrim hollarda katta aka yoki opalarning ismlari kichik farzandlar ismlari bilan uyg'un (ohangdosh) tarzda tanlanadi [3].

O'zbek onomastikasida esa uyg'un ismlar masalasi ilk bor L.I. Roizenon va A.I. Isaevlar tomonidan alohida tahlil qilingan. Tadqiqotchilar bu turdagi ismlarni antroponimik seriyalar deb ataydilar va bu tushunchani quyidagicha izohlaydilar: Antroponimik seriya – bu bir xil affikslarga (prefikslar va suffikslar) yoki boshqa segmentlarga ega bo'lgan ismlar guruhidir. Bunday guruhdagi ismlar odatda bitta oiladagi farzandlarga – aka-ukalar va opa-singillarga – qo'yiladi va ular shakl jihatidan o'zaro o'xshash bo'ladi [6]. Ushbu mualliflar fikriga ko'ra, uyg'un ismlar qo'yilishining asosiy sababi – bir oilaga

mansub shaxslarni o'zaro ajratishda qulaylik yaratishdir: "Antroponimik seriyaning ahamiyati shundaki, u antroponimiya tizimining qo'shimcha belgilari sifatida kichik guruhlar ichida odamlarni o'zaro farqlashda xizmat qiladigan mikro tizimdir. Demak, antroponimik seriya shaxslarni ismlar orqali aniqlashning qo'shimcha vositasi hisoblanadi"[6].

Ismlar uyg'unligi shartli hodisa bo'lib, u quyidagi xususiyatlar orqali namoyon bo'ladi:

hatto bir oilada ham bunday ismlar doimiy hodisa sifatida qabul qilinmaydi;

ba'zida oila ichidagi o'rta yoki kenja farzandga ism qo'yishda uyg'unlikka rioya qilinmasligi mumkin;

til tizimidagi barcha uyg'un ismlar har doim ism sifatidagi vazifani bajara olmaydi.

Umuman olganda, ismlar uyg'unligi qat'iy qonuniyat asosidagi lingvistik hodisa bo'lib emas, balki ijtimoiy-etnik an'anaga tayanuvchi jarayondir. Bunday nomlashda ota-onalar farzandlariga ohangdosh ismlar tanlash orqali ularni guruh sifatida chiroyli tarzda birlashtirishga intilishadi, bu esa ularning o'zaro qarindoshligi va yaqinligini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi savollar ilmiy izlanishlarni talab qiladi: ismlar uyg'unligi qachon va nima sababdan vujudga kelgan? Uning ijtimoiy-etnik asoslari nimalardan iborat? Qaysi tillarda bunday hodisa mavjud yoki mavjud emas? Uyg'un ismlarning funksional darajasi qanday?

Antroponimik seriyalar yoki rifo'iy ismlar guruhi, asosan, ism beruvchilarning xohishi, izlanishlari va ijodiy faoliyati natijasida vujudga keladi. Masalan, Almagul, Jumagul, Bazargul, Turdigul, Orazgul kabi ismlar orasidagi o'xshashlik ularning ikkinchi komponenti – "gul" so'zi orqali ta'minlanadi. Farzandlarga ohangdosh ismlar berish an'anasi barcha turkiy tillarda uchraydi. Shu munosabat bilan L.K.Roizenson va A.Boboxojayevning quyidagi kuzatuvlari alohida e'tiborga loyiq: "Bu hodisa (ismlar uyg'unligi) barcha turkiy xalqlar antroponimiyasida uchraydi. Ammo uning ahamiyati, tarqalish darajasi, qadimiy hodisa yoki antroponimik yangilik ekanligi, seriyalarni qo'llash an'analari, bu rivojlanayotgan jarayonmi yoki eskirayotgan hodisami – bularning barchasi hali o'z ilmiy tadqiqini kutmoqda"[7]. Bu savollarga hozircha aniq javob topish mushkul, chunki antroponimik seriyalarga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar yetishmaydi.

Ismlar uyg'unligini yaratish uchun, odatda, tayanch (model) ism bo'lishi kerak. Qoraqalpoq antroponimiyasi materiallari asosida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, o'g'il bolalarga berilgan rifo'iy ismlar ko'pincha bolaning amakisi, otasi yoki bobosining ismlaridan kelib chiqadi. Ba'zan bunday ism bolaning ota-onasi tomonidagi qarindoshlari bolalarining ismlariga taqlid qilish orqali aniqlanadi. Qiz bola uchun esa tayanch ism sifatida onasi, halasi, ammasi yoki xolalari, ba'zida esa ota tomonidan opa-singillarning ismlari xizmat qiladi. Eng keng tarqalgan va mahsuldor holat – bu bolaning buvisi yoki xolasi ismlariga ohangdosh ism tanlash orqali yuzaga keladi.

Oila tarkibidagi farzandlar soniga qarab, bir oilada 5–6 nafar bola bo'lishi mumkin. Ularning ismlari o'zaro uyg'unlik asosida tanlangan hollarda bu uyg'un ismlar tizimini hosil qiladi. Vaqt o'tishi bilan odamlar bunday uyg'un ismlarning paydo bo'lishini bir oiladagi farzandlarni yoki ular bilan aloqador boshqa qarindoshlarni o'zaro bog'lovchi va yaqinlashtiruvchi vosita sifatida qabul qilganlar. Uyg'un ismlar, bir tomondan, bolalarining ismlarini tez yodlash, chaqqon aniqlash va esda saqlashga

yordam bersa, ba'zi hollarda farzandlar ismlarini chalkashtirib yuborishga ham sabab bo'lishi mumkin.

Antroponimik uyg'un qatorlarning kelib chiqishi, tiplari va shakllanish omillari hali to'liq o'rganilmagan. Ayrim tumanlarda FHDYO arxivlarida olib borilgan kuzatuvlar va aniq oilalar misolida amalga oshirilgan tadqiqotlar ushbu antroponimik uyg'un qatorlarning namoyon bo'lish shakllarini (ya'ni turlarini) aniqlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Yangi tug'ilgan bolaga ism qo'yishda, odatda, amaki yoki xola kabi qarindoshlar ismi tayanch yoki yo'naltiruvchi model sifatida tanlanadi. Navbatdagi bola uchun aynan shu tayanch ismga fonetik yoki morfologik jihatdan o'xshash ism izlab topiladi.

Uyg'un ism qatorlari odatda quyidagi shakllarda vujudga keladi:

Buvi ismi bilan ukasining ismi uyg'un bo'lishi;

Opa ismi bilan ukasi yoki singlisi ismining fonetik uyg'unligi;

Ona ismi bilan qiz farzandlar ismining uyg'unligi;

Ota ismi bilan o'g'il farzandlar ismining uyg'unligi;

Oila farzandlarining yoki bir farzandning ismlari yaqin qarindoshlari bolalarining ismlari bilan uyg'un bo'lishi;

Farzand(lar) ismining onasi yoki otasining opa-singillari (xola, amma) yoki aka-singillari (amaki, tog'a) ismlari bilan uyg'un bo'lishi;

Nabira yoki chevara ismining buvi yoki buvaning ismi bilan uyg'un bo'lishi.

Bir oilada o'g'il va qiz farzandlarning ismlarini uyg'un shaklda tanlash holatlari juda kam uchraydi. Amaliyotda odatda o'g'il bolalarining ismlari o'zaro uyg'un, qizlar ismlari esa o'zaro alohida uyg'unlikda bo'ladi. Masalan: Atabek, Musabek, Azizbek – o'g'il bolalar; Aysara, Gulsara, Biybisara – qiz bolalar.

Qoraqalpoqlarda bir oiladagi farzandlarga fonetik jihatdan o'xshash ismlar qo'yish an'anasi hanuzgacha saqlanib kelmoqda. Ko'plab oilalarda bu hodisa kuzatiladi. Biroq ota-onalar har doim ham bu qadimiy an'anaga qat'iy amal qilavermaydilar.

Bizning tadqiqotlarimizga ko'ra, ismlar o'rtaqidagi fonetik uyg'unlikni ta'minlovchi til materiallari quyidagilardan iborat:

Ismlarning boshlang'ich harflari o'xshash: Zamira, Zulfiya, Zakira, Ziyada, Zuxra, Zaynab.

Ismlarning birinchi bo'g'ini o'xshash: Nursuliw, Nurjahan, Nurjamal

So'nggi ikki bo'g'in fonetik jihatdan o'xshash: Gulayda, Zubayda, Ubayda; Aysara, Gulsara, Ulsara, Biybisara

Murakkab ismlarning birinchi komponentida quyidagi birliklar takrorlanadi:

"nur": Nursuliw, Nurjamal, Nurjahan.

"gul": Gulsara, Gulsara, Guljamal, Gulsara. [8]

"ay": Ayjamol, Aygul, Aysara, Aynur.

"bibi": Bibigul, Bibixon, Bibijamol. [9]

Murakkab ismlarning oxirgi qismida quyidagi birliklar takrorlanadi:

"zada": Ayzada, Palzada, Gulsara, Nurzada.

"ay": Altinay, Gumsay, Gawharay.

"nur": Aynur, Gulsara, Dilnur.

"gul": Aygul, Orazgul, Tazagul, Bazargul.

"biyke": Otebiyke, Turdibiye, Yaxshibiye.

"biybi": Aybiybi, Gulsara, Nurbiybi.

"xan": Perdexan, Tazaxan, Bazarxan, Gulsara.

“jan”: Biybijan, Ayjan, Guljan. [10]

Qoraqalpoq antroponimiyasida bunday misollar son jihatdan juda ko'p bo'lib, ular til, madaniyat va oilaviy meros o'rtasidagi murakkab va boy o'zaro bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Xulosa. Qoraqalpoq antroponimiyasida ismlar uyg'unligi (rifmli ismlar) hodisasi o'zining lingvistik shakllanishi, madaniy ildizlari va ijtimoiy funktsiyalari bilan murakkab va ko'p qatlamli fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan lingvistik tahlillar, arxiv materiallari va empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, uyg'un ismlar tizimi qoraqalpoq xalqining tarixiy xotirasi, oilaviy an'analari va estetik mezonlari bilan chambarchas bog'liq.

Uyg'un ismlar, birinchidan, antroponimik seriyalar shaklida namoyon bo'lib, bitta oila yoki avlod doirasida fonetik, morfologik yoki semantik o'xshashlik asosida tanlanadi. Bunday ismlar turli leksik komponentlar (masalan, gul, nur, zada, ay, bibi, jon) orqali tuzilib, oiladagi aka-ukalar, opa-singillar yoki ota-onalar va ularning farzandlari o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchidan, bu hodisa turkiy xalqlarga xos umumiy madaniy jarayon bo'lib, o'zbek, tatar, ozarbayjon, boshqird va boshqa etnik guruhlar onomastikasida ham mavjudligi kuzatilgan. Ammo qoraqalpoq tilidagi uyg'un ismlar tizimi o'ziga xos tipologik xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Uchinchidan, uyg'un ismlar ijtimoiy jihatdan identifikatsiya qilishni osonlashtiradi, oilaviy birdamlikni mustahkamlaydi va madaniy uzviylikni ifodalaydi. Shu bilan birga, ayrim hollarda bu ismlar tizimi amaliy muammolar – ism chalkashligi, hujjatlarda xatoliklar – keltirib chiqarishi ham mumkin.

To'rtinchidan, ismlar uyg'unligi qat'iy qonuniyatga emas, balki ijtimoiy-ma'naviy tanlovga, estetik didga va oilaviy qadriyatlar tizimiga tayanadi. Ba'zi hollarda bu an'ana izchil saqlanadi, ba'zida esa ota-onalar tomonidan o'zgartiriladi yoki butunlay rad etiladi.

Beshinchidan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uyg'un ismlar tizimini chuqur o'rganish orqali turkiy xalqlar onomastikasining ichki mexanizmlarini, madaniy xotira modellari hamda til va jamiyat o'rtasidagi murakkab aloqalarni ochib berish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Шатинова Н.И. Рифмирование личных имен у алтайцев. // Ономастика Востока. М., «Наука», 1980, –b.40.
2. Абдуллаев И.Х. Некоторые вопросы дагестанской антропоники. // Личные имена в прошлом, настоящем, будущем. М., «Наука», 1970, –b.138.
3. Саадиева Ш.М. Основные правила выбора имен для новорожденных (по азербайджанской антропонимии). Личные имена в прошлом, настоящем, будущем. М., «Наука», 1970, –b.189.
4. Галиуллина Г.Р. Личные имена татар в XX веке. Казань, «Матбугат йорты» 2000, –b.49.
5. Ураксин З.Г. Основные критерии выбора имен у башкир. // Личные имена в прошлом, настоящем, будущем. М., 1970, –b.183.
6. Розейзон Л.И., Исаев А.И. Об антропонимических сериях. // Вопросы ономастики. Самарканд, 1971, –b.38.
7. Розейзон Л.К., Бобохужаев А. Антропонимические серии у узбеков Нураты (Самаркандская область). // Ономастика Средней Азии. М., «Наука», 1978, –b.144.
8. Баскаков Н.А. Элемент гүл «роза цветов» в составе каракалпакских женских имён. // Ономастика Средней Азии. М., «Наука», 1978, –b.138-143.
9. Пахратдинов Қ., Өтемисов Ө. Каракалпак адам атлары сөзлиги. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2021.
10. Пахратдинов Қ., Ержанова Д. Каракалпак адам атларының түсіндірме сөзлиги. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2022.